



STRUCTURE, DUTIES AND TYPES OF INTERGENERATIONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY

Guljakhon Farkhodovna Mamarayemova

doctoral student

"Family and Gender" Scientific Research Institute

Uzbekistan

E-mail: gmamarayemova1222@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: generation, intergenerational relationship, integration, identification, transgenerational, stabilization, resource, communicative, alienation of generations.

Received: 10.09.24

Accepted: 12.09.24

Published: 14.09.24

Abstract: This article is aimed at studying the structure and functions of intergenerational relations in the family. Their tasks and types are explained from a scientific theoretical point of view. Conflicts in intergenerational relations in the family, which is considered the main component of society, the conditions of support and stability between generations are considered. The problem of intergenerational relations is inextricably linked to the peace, strength and stability of families. The closeness of intergenerational relations forms families, families unite to build society, intergenerational relations, society and family are interdependent.

OILADAGI AVLODLARARO MUNOSABATLARNING TUZILISHI, VAZIFALARI VA TURLARI

Guljahon Farhodovna Mamarayemova

doktarant

"Oila va gender" ilmiy – tadqiqot instituti

O'zbekiston

E-mail: gmamarayemova1222@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: avlod, avlodlararo munosabat, integratsiya, identifikatsiya, transgeneratsiya, barqarorlashuv, resurs, kommunikativ, avlodlar begonalashuvi.

Annotatsiya: Mazkur maqola oiladagi avlodlararo munosabatlarning tuzilishi va vazifalarini oʻrganishga qaratilgan. Ularning vazifalari va turlarini ilmiy nazariy jihatdan izohlanadi. Jamiyatning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan oiladagi avlodlararo munosabatlardagi ziddiyatlar, avlodlar

o'rtasidagi qo'llab – quvvatlash va barqarorlik shartlari ko'rib chiqiladi. Avlodlararo munosabatlar muammosi oilalarning tinchligi, mustahkamligi va barqarorligiga uzviy bog'liq. Avlodlar o'rtasidagi munosabatlarning uzviy yaqinligi oilalarni tashkil qiladi, oilalar jamlanib jamiyatni barpo qiladi, avlodlararo munosabatlar, jamiyat va oila o'zaro bog'liqligi ifodalanadi.

СТРУКТУРА, ОБЯЗАННОСТИ И ВИДЫ МЕЖПОКОЛЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ

Гулжахон Фарходовна Мамараимова

докторант

Научно-исследовательский институт «Семья и гендер»

Узбекистан

E-mail: gmamarayemova1222@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: поколение межпоколенные отношения, интеграция, идентификация, трансгенерация, стабилизация, ресурс, коммуникативность, отчуждение поколений.

Аннотация: Данная статья направлена на изучение структуры и функций межпоколенческих отношений в семье. Их задачи и виды объяснены с научно-теоретической точки зрения. Рассмотрены конфликты в межпоколенческих отношениях в семье, которая считается основной составляющей общества, условия поддержки и стабильности между поколениями. Проблема отношений между поколениями неразрывно связана с миром, крепостью и стабильностью семьи. Тесность отношений между поколениями образует семьи, семьи объединяются, чтобы построить общество, отношения между поколениями, общество и семья взаимозависимы.

KIRISH

Avlodlararo munosabatlar muammosi yangi asrda jamiyat uchun dolzarb va qiziqarli mavzu, chunki har bir zamonda avlodlar jamiyatning ajralmas bir guruhi hisoblanadi, ular o'rtasidagi aloqalar, munosabatlarni mustahkamlash qo'llab – quvvatlash va barqarorlik, shuningdek avlodlar o'rtasidagi uzviylik, madaniy rivojlanishning zaruriy shartidir. So'nggi yillarda jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar inson hayotining, turmush tarzining har bir javhasiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. Xususan, zamonaviy jamiyatda avlodlar o'rtasidagi munosabatlar ziddiyat bilan ajralib turadi, avlodlar o'rtasidagi aloqalar uzilishiga begonalashishiga olib keladi. Bu munosabatlarni aniqlash tasniflash va o'rganishni talab qiladi. Bu esa oila ichidagi jarayonlar,

avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar muammosini chuqurroq o‘rganishni taqazo etadi. Avlodlararo munosabatlar shakllari, turlari, vazifalari mohiyatini anglab yetish lozimligini ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Fanda avlodlararo munosabatlar muammoshi turlicha yoritiladi. Falsafa va psixologiyada munosabatlar tushunchasi farqlanadi. Falsafa (Aristotel[2], I. Kant, L. Feyerbax, M. M. Troitskiy, J. S. Mill)ning, tub-tubida vujudga kelgan “munosabat” toifasi zamonaviy psixologiya(I. F. Gerbart, V. Vundt, G. Gefting, K. Stumpf)[7]da, sotsiologiya(G. Spenser)da alohida ma’noga ega. Biroq, muayyan mavzuni ochilayotgan kontseptsiyaning mazmuni aniqlashda qiyinchiliklar mavjud, bu uning fanlararoligi va uzoq o‘rganish tarixining natijasidir. Falsafiy nuqtai nazardan “qaror” atamasi universallik xarakterini qamrab oladi. Fanda munosabatlar psixologiyasining asosiy tushunchalari V. M. Bexterev, A. F. Lazurskiy, M. Ya Basov[3], V. M. Myasishchev, B. F. Lomov, S. L. Rubinshteyn, K. K. Platonov asarlarida taqdim etilgan.

Ilmiy maqola tayyorlash jarayonida, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullardan foydalanildi.

“Avlod” tushunchasi bir ajdoddan tug‘ilgan, bir xil yilda tug‘ilgan, zamondoshlari bilan o‘xshash turmush tarziga ega, bitta umumiy hayotiy voqea bilan birlashtirilgan ma’noni anglatadi. Hozirgi zamonaviy ilm-fanda quyidagi 3 ta yondashuv madaniy, sotsiologik va psixologik bilan avlodga mansublikni belgilash mumkin. Bular orasida madaniy yondashuv asosiy tushuncha hisoblanib, ma’lum bir submadaniy qadryatlar tizimida mansubligiga ko‘ra aniqlanadi. Shuningdek, sotsiologik jihatdan avlod tushunchasi madaniy - tarixiy kontekst va qon munosabatlarining umumiylik orqali o‘rganiladi. Psixologik yondashuvda avlodlar mansubligining asosiy belgilari murakkab tizimli shakllanishlar –yosh va mentalitetdir[1]. Shu bilan birga, ijtimoiy – falsafaga mansublik mezoni zamonaviy ilmiy bilimlar bilan ifodalanmaydi. Ijtimoiy falafada va ijtimoiy psixologiyada avlodlar va guruhlar guruhlararo munosabat deb tasniflanadi. Biroq oiladagi avlodlararo munosabati guruhlararo deb tasniflanmaydi shaxslararo deb tasniflanadi. Bu oiladagi avlodlararo munosabatlarning guruhlararo va ijtimoiy - falsafiy o‘rnini aniqlash zarurligini taqazo etadi. Shaxslararo munosabat “oilada avlodlararo munosabat” tushunchasi ta’kidlab “avlod”[5] tushunchasining o‘zaro semantik sohalarini bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Avvalo, avlodlararo munosabatlar atamasi mazmunini tushunib olsak, bu turli avlod vakillari va guruhlari o‘rtasidagi har qanday turdagi munosabatlarni anglatadi. Bulardan eng ko‘p tarqalgani ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi yoki bobo-buvilar va nevaralar o‘rtasidagi munosabatlar bo‘lib, shuningdek, yoshi kattalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar ham avlodlararo munosabatga namuna bo‘la oladi, garchi ular o‘rtasida qarindoshlik mavjud bo‘lmasa ham. Shunga ko‘ra, ikkala

atama ham avlodlararo va munosabatlar bir nechta ma'noga ega, ko'p o'lchovli birlik hisoblanadi. Biz esa, aynan oiladagi avlodlararo munosabatlarni ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy falsafada avlodlararo munosabatlar shaxslararo va guruhlararo hodisalar sifatida o'rganiladi. Guruhlararo hodisa sifatida avlodlararo munosabatlar katta ijtimoiy guruh bo'lib, avlod va uning tashkiliy tuzilmasi bo'lib, unga o'zaro ta'sir etuvchi omillar mavjud. Bular: jamiyatda diniy, etnik jihatdan birlashmasi va o'zaro qadriyatlar va mentalitetlar tizimi. Shu bilan birga, kichik guruh sifatida oiladagi avlodlararo munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bularni yosh jihatidan xronologik mezoniga razm tashlasak, 10 yoshdan yuqori farzandlar, 20-30 yoshdan yuqori turmush o'rtoqlar, 50 yoshdan yuqori keksa yoshdagilar bo'lib har bir shaxsning oilada o'rni, mas'uliyati va vazifalari mavjud. Avlodga mansublik har bir shaxsning individual ongida namoyon bo'ladi, idrok etadi va o'ziga xoslikka ega. Shaxslararo munosabatlarda esa kichik guruhi "ota-onalar va farzandlar" va "bobo-buvilar a nabiralar" munosabatlarining o'zaro xususiyatlari va o'ziga xosligi tushuniladi.

Oiladagi avlodlararo munosabatlar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ham guruh, ham individual shaklda anglash ma'lum bir darajada cheklangan va keng imkoniyatlar bermaydi. Oiladagi avlodlararo munosabatlar shaxslararo va guruhlararo o'zaro ta'sir, hamda siyosiy, ijtimoiy- falsafiy, psixologik qarama –qarshiliklarga ega va shu jihatdan o'rganish samaralidir. Oila o'ziga xos ko'p faktorli guruhlararo va shaxslararo munosabatlarning kategorik xususiyatlarini birlashtiradi. Ushbu kategoriyalarga quyidagilarni keltirish:

- "Avlodlararo aloqa";
- "Avlodlararo muloqat";
- "Avlodlararo davomiylik";
- "Avlodlararo ziddiyat";
- "Avlodlararo birdamlik".

Ijtimoiy munosabatlar tizimida avlodlararo o'zaro ta'sir, ijtimoiy holatdagi munosabatlarini belgilaydi. Avlodlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari shundaki, buning natijasi oilalarda namoyon bo'ladi. Quyidagilar asosida jamiyatdagi avlodlararo munosabatlarning oiladagi funksional o'ziga xosligi tasvirlangan empirik tadqiqotlar asosida kelib chiqqan:

1. Identifikatsiya funksiyasi – bu ijtimoiy guruhga a'zolik orqali avlod o'ziga xos xususiyatlarini ta'minlovchi;
2. Transgeneratsiya funksiyasi – bu moddiy va ma'naviy boyliklarni avloddan-avlodga yetkazish, qadriyatlar va urf-odatlarini saqlash, oiladagi oldingi va birga yashayotgan avlodlarning tajribasini o'zlashtirish va foydalanish, oilaviy xotira uzatish jarayonini ta'minlash;
3. Resurs funksiyasi – bu oila a'zolarining eng qiyin vaziyatlarda bir-birini qo'llab-quvvatlash;

4. Kommunikativ funksiyasi – bu avlodlararo aloqa jarayoni bo‘lib, avlodlar tajribasini biri-biriga uzatish uchun qulay sharoit yaratadi;

5. Ijtimoiylashtirish funksiyasi – bu har qanday sharoitda oila a‘zolari o‘zaro munosabatda bo‘lish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni ta‘minlaydi va boshqa avlodlar tomonidan ishlab chiqilgan tajribani keyingi avlod vakillari o‘zlashtiradi.

6. Barqarorlashtiruvchi funksiyasi – bu oilaning eng muhim xususiyatlari hisoblanib, muhim ahamiyatga ega. Oilaviy xotira sifatida saqlanishiga yordam beradigan tajribalarni o‘z ichiga olgan murakkab g‘oyalar to‘plami.

Oiladagi avlodlararo munosabatlarning tasnifi masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Bunday tasniflash mezonlari avlodlararo munosabatlarning dinamikasi va mazmun jihatidan hisobga olinadi. Ushbu mezonga muvofiq, “munosabatlar kenkinligi”, “avlodlar begonalashuvi”, “avlodlar integratsiyasi(avlodlarning bir – birini qabul qilishi)”, transgenerativ munosabatlarning o‘ziga xos turi -“oilaviy xotirani saqlash”[4].

- “Munosabatlar keskinligi” turi identifikatsiya funksiyasiga asoslanadi, ya‘ni ajdodlar tajribasini “to‘g‘ridan-to‘g‘ri” avlodlar qabul qilishi va ko‘paytirishi.

- “Avlodlarni begonalashtirish” turi ajdodlar tajribasiga asoslangan elementlarni “teskari” jihatdan ko‘paytirish. Oilada avlodlararo munosabatlarning ushbu turini shakllantirishning kaliti oilaviy o‘ziga xoslikning hissiy-baholash tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning o‘ziga nisbatan kuchli salbiy tajribasida namoyon bo‘ladi. Shaxs o‘zini oilasidan haddan tashqari izolyatsiya qilish, begonalashish, oila va uning a‘zolariga nisbatan o‘ta salbiy munosabat ifodasi sifatida dushmanlik, nafrat va uyatli holatga olib kelish bildiradi.

- “Avlodlar integratsiyasi” turi o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmlariga asoslangan bo‘lib, bu avlodlar davomiyligida namoyon bo‘ladi. Avlodlararo munosabatning bunday turi oiladagi avlodlar va ularning jamiyat bilan ongli aloqasi mustahkamlanishi va kuchayishiga xalaqit bermaydigan integratsiya. Oilaviy guruh a‘zolarining shaxsiy identifikatori.

- “Oila xotirasini saqlash” turi hozirgi paytda yo‘q(yoki o‘lgan) ajdodlarning muhim tajribalarini saqlash. Bu oila uchun xos bo‘lgan o‘ziga xos munosabat turi. Bu avlodlarning ajdodlarga ongli va ongsiz mexanizmlarida, ya‘ni yorqin xotiraning saqlanishida, foydali va qimmatli tajribalarini ta‘minlashda namoyon bo‘ladi. Bilim va g‘oyalar va bu tajribaga nisbatan hissiy – baholovchi munosabat avloddan avlodga uzatiladi. Biroq, ba‘zi holatlarda oilaviy senariylarini bu holatda saqlab bo‘lmaydi, oilalarning ko‘pincha yolg‘izlanib qolishi, erta o‘limi, davolab bo‘lmaydigan kasallikka duchor bo‘lishi kabi salbiy tajribalar oila a‘zolarining noto‘g‘ri hatti harakatiga olib keladi.

Shunday qilib, oiladagi avlodlararo munosabatlar turli xil va noaniq ko‘rinishlarga ega, ular rivojlanishining konstruktivniy va destruktivniy shakllarini aniqlash mumkin.

XULOSA

Oiladagi avlodlararo munosabatlar guruhlararo va shaxslararo munosabatlarning kategorik belgilarini birlashtirgan ijtimoiy – falsafiy hodisadir. Oiladagi guruhlararo munosabatlar avlodlararo munosabatlar shakllanishining asosiy sharti hisoblanadi va oila a’zolarining bir – biriga nisbatan barqaror his – tuyg’ular va tajribalar tizimini belgilaydi. Oiladagi avlodlararo munosabatlarning o’ziga xos shakllari, tuzilishi va xususiyatlari mavjud bo’lib, avlodlararo munosabatlarning mohiyatini ochib beradi. Avlodlararo munosabatlarning tuzilishi oiladagi “O’z” va “Boshqa” avlodlarga tegishli xususiyatlar haqidagi bilimlar va g’oyalarni birlashtiruvchi aqliy va hissiy komponentlarni o’z ichiga oladi. Avlodlararo munosabatlar va ularning vazifalari oila a’zolarining aloqasi, har qanday vaziyatda qo’llab – quvvatlashi, qadryat va oilaviy an’analarni o’zlashtirishi va keyingi avlodga uzatishini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Абрамова, Г. С. Возрастная психология : учебное пособие для студ. вузов / Г. С. Абрамова. М. : Академический Проект; Екатеринбург : Деловая Книга, 2000. - 624 с.
2. Аристотель. Сочинения. В 4 т. М.: Мысль, 1975-1983. - (Серия “Философское наследие”).
3. Басов, М. Я. Проблемы функциональной психологии в постановке А. Ф. Лазурского / М. Я. Басов // Вопросы изучения и воспитания личности. -1920.-№2.-С. 219-229.
4. Краснова, О. В. Проблемы психодиагностики людей позднего возраста / О. В. Краснова // Психологическая диагностика. 2006. - № 4. - С. 6891.
5. Сапоровская, Мария Вячеславовна. Психология межпоколенных отношений в семье//диссертации//.-М.: 2013.
6. Шибутани, Т. Социальная психология / Т. Шибутани. М. : Прогресс, 1969. - 544 с
7. Штумпф, К. Явления и психические функции / К. Штумпф // Новые идеи в философии. / под ред. Н. О. Лосского, Э. Л. Радлова. СПб, 1913. -Сборник4.-С. 50-101.
8. Хамитова, И. Ю. Семейная история и ее влияние на переживание беременности Электронный ресурс. / И. Ю. Хамитова // URL: http://psyjournal.ru/j3p/pap.php?id=20_050_418.